

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISHMATOVA OZODAXON SIRODJOVNA

**ALOHIDA EHTIYOJLI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI
NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA FONETIK RITMIKADAN
FOYDALANISH**

13.00.03-Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Ishmatova Ozodaxon Sirodjovna

Alohida ehtiyojli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish.....5

Ишматова Озодахон Сироджовна

Использование фонетической ритмики в развитии речи учащихся начальных классов с особыми потребностями.....21

Ishmatova Ozodaxon Sirodjovna

The use of phonetic rhythmic in developing the speech of primary school students with special needs.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISHMATOVA OZODAXON SIRODJOVNA

ALOHIDA EHTIYOJLI BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARI
NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA FONETIK RITMIKADAN
FOYDALANISH

13.00.03-Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7217 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullyeva Gavhar Saparovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Arslanova Madina Mansurovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.Ped.82.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__»_____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__”_____ da tarqatildi.

(2025-yil “__”_____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

I.D. Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim oluvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini kollektiv muhitda, kompetensiyaviy yondashuvlar vositasida rivojlantirishning korreksion yo'naltirilgan mexanizmlari amaliyotga joriy etilgan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta tayyorlashning omili sifatida ularda mustaqil nutqni tizimli shakllantirish o'ziga xos metodik jarayon modellarini taqozo etadi. Bunda nutq rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi karlik va zaif eshituvchilik darajalariga va bolalarning individual xususiyatlariga ko'ra tanlangan korreksion-kompensatsion ta'sir muhim sanaladi. BMT ning "Global fuqarolikni tarbiyalash: mavzular va o'qitish maqsadlari" dasturida ta'lim oluvchilarni XXI asr muammolariga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish taklif etilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalarning eshitish qoldig'idan foydalanish va ularga axborotni yaxlit qabul qilish va tushunishga imkon beruvchi vositalardan foydalanishni o'rgatishning korreksion-pedagogik tizimini takomillashtirish metodik masala sifatida dolzarb sanalmoqda.

Dunyo ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlarida kar va zaif eshituvchi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, ona tili qonuniyatlari asosida axborot almashishga o'rgatish mazmunini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarini individual yondashuvlar ustuvorligida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Eshitishning pasayishi va yo'qolishi oqibatida yuzaga keluvchi birlamchi va ikkilamchi kamchiliklarni erta tashxis qilish va korreksiyalashning maxsus metodikalarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, individual yo'naltirilgan kinestetik jarayonda kar va zaif eshituvchi bolalarga o'z nutqini his qilishga o'rgatishning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, korreksion mashg'ulotlarning mazmunli va tashkiliy komponentlarida metodik integratsiyaga ustuvorlik berishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish orqali ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha huquqiy me'yorlar ishlab chiqilgan. "Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quv muhitini qulaylashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini tizimli rivojlantirish orqali inklyuziv va maxsus ta'lim samaradorligini oshirishning yetakchi tendensiyalarini o'rganish va amaliyotga joriy etish" bo'yicha vazifalar belgilangan. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish va ko'rib-eshitish asosida nutqni shakllantirish metodikasini individual yo'naltirilgan va kompensatsion yondashuvlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Natijada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini hamda daktil va imo-ishorali nutq vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tiziminitubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹, 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son

“Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to’g’risida”², 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. to’g’risida.” farmonlari ³, 2020-yil 13-oktyabrdagi PIQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi⁴ qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori ⁵ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi hamda bu jarayonda surdotexnik vositalardan foydalanish masalalari F.Alimxo‘jayeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, N.Dadaxo‘jayeva D.Nazarova, U.Fayziyeva, F.Qodirova, R.Rustamova, Z.Mamarajabova, G.Abdullayeva, X.Raximovalar tomonidan tadqiq etilgan. Surdopedagogika amaliyoti uchun sifatli kadrlar tayyorlash masalasi D.Yakubjanova, F.Teshaboyeva, M. Qodirov va boshqa olimlar tomonidan tahlil etilgan va amaliyotga tavsiyalar etilgan.

MDH davlatlarida kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limining turli sohalarida R.M. Boskis, B.S.Preobrajenskiy, E.I.Leongard, L.P.Noskova, L.A.Golovchis, F.F. Rau va boshqalar ishlarida tadqiq qilingan. Kar va zaif eshituvchilarning nutqini ritmik harakatlar orqali rivojlantirish borasidagi ilmiy izlanishlar T. M. Vlasova, A. N. Pfafenrod, N.D.Shmatko, S. A. Baskakova, Y.S. Avdeyenko, Y.V. Julina, Ye. Z. Yaxnina, Ye. V. Karakulova va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Xorijiy olimlardan Jan Jak Dalkroz, Melany del Carmen León Méndez, Nicolas Cason, Jana Iverson va Esther Thelen tadqiqotlarida bolalarning nutqini rivojlantirishda ritmni his qilishga o‘rgatishning kompleks imkoniyatlari tadqiq etilgan. Ingliz va italiya tadqiqotchilari Simone Dalla Bella va Daniyele Schönlar koxlear implantli bolalar nutqini rivojlantirishda ritm orqali o‘tkazilgan ta’sirdan foydalanish metodikasi asoslab berilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil 11 dekabr, 49-son, 1195-modda.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022—2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”. 29.01.2022

⁴ 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ–4860-son. 14.10.2020 <https://lex.uz/ru/docs/-5044711>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021-yildagi 638-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida ” gi qarorining 1-ilovasi.

rivojlantirishda ritmni his qilishga o'rgatishning kompleks imkoniyatlari tadqiq etilgan. Ingliz va italiya tadqiqotchilari Simone Dalla Bella va Daniele Schönlar koxlear implantli bolalarning nutqini rivojlantirishda ularning ritmik qobiliyatlarini o'rganib, ritm orqali o'tkazilgan ta'sir bolalarning nutqiy rivojlanishini yengillashtiradi degan nazariyani ilgari surganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlar rejasiga muvofiq "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining pedagogik-psixologik asoslari" nomli ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning korreksion-rivojlantiruvchi imkoniyatlarini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning kompleks metodik imkoniyatlarini aniqlash;

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish modelini takomillashtirish;

fonetik ritmika vositasida o'quvchilar nutqini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

fonetik ritmika vositasida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida fonetik ritmika vositasida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri, Farg'ona viloyati va Toshkent viloyati Olmaliq shahri maxsus maktab- internatlarining jami 116 nafar tayyorlov va 1-sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilari jalb etildi.

Tadqiqot predmetini fonetik ritmika vositasida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning mazmuni, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda so'rovnoma, kuzatish, pedagogik eksperiment va matematik statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari nutqni vizual-fonetik qabul qilish va ifodalash imkoniyatlarini hisobga olish hamda korreksion ta'sir usullarini ta'limiy maqsadlarga mos statistik o'rganish asosida aniqlashtirilgan;

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirish jarayoni ritmik mashqlarning sinflar kesimida adaptivlashtirilishida tizimlilik va individual yondashuvlarga moslashtirish hamda kinetika va kinestetika uyg'unligining ritmik intervalda bo'lishini maqsadli ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

fonetik ritmika vositasida o'quvchilar nutqini rivojlantirish texnologiyasi faol nutqqa motivatsiyalovchi ritmik mashqlarni ovoz, nafas, diksiya ustida ishlash komponentlariga ko'ra darajalash hamda pedagogik ta'sir vositalarining texnologik

xaritasini shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

fonetik ritmika vositasida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning didaktik ta'minoti tovushlar tasnifiga ko'ra nutqiy monitoring yuritish talablarini musiqa va ritmika dasturi tarkibiga kiritish hamda nutq talaffuzining intellektual mazmunga to'g'ri proporsional ekanligini ko'rsatib berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kar va zaif eshituvchi o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligini oshirishda o'qituvchi-surdopedagoglarning faoliyatini takomillashtirish hamda ularning metodik ta'minotini amalga oshirishga xizmat qiluvchi "Fonetik ritmika" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi va joriy etildi;

kar va zaif eshituvchi o'quvchilar uchun harakat va ritmga asoslangan holda tovushlar talaffuzini o'rganishga xizmat qiluvchi "Quvnoq fonetik ritmika" nomli elektron uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi;

mutaxassislarning korreksion-pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda kompetentligini shakllantirishning didaktik, xususiy tamoyillarini ilmiy-metodik kontekstda asoslashga oid tajribalar asosida "Surdopedagogika" nomli darslik ishlab chiqildi;

kar va zaif eshituvchi o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida mazkur toifa o'quvchilarining nutqini shakllantirishda ritmika o'qituvchisi, yakka tartibda ishlaydigan surdopedagog-o'qituvchi hamda boshqa fan o'qituvchilariga didaktik vosita bo'lib xizmat qiluvchi "Og'zaki nutqni shakllantirish va talaffuzga o'rgatishda fonetik ritmika" nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlar materiallari to'plamlarida, Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar; nashr etilgan o'quv qo'llanmalar; dissertatsiya mazmunini to'liq yoritish uchun yetarli hajmda to'plangan materiallar, tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi; taqdim etilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar yordamida aniqlanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi; hamda ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini fonetik ritmika vositasida rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan korreksion ishlarning kinetik-kinestetik yo'naltirilgan metodik tizimi asosida individual yondashuvlar ustuvorligida tizimlashtirilganligi, o'quvchilarda tovushlar talaffuzini harakatlar bilan parallel ravishda dinamik intervalda me'yorlashtirish, o'zbek tili tovushlari tasnifi asosida ritmik harakatlar va korreksion mashqlar tizimini adaptivlashtirishning samarali yo'llari va vositalari aniqlanib, ritmika mashg'ulotlari amaliyotiga prosodika, fonetika va mustaqil nutq bosqichlarda harakat va tovush ifodalari vositasida joriy etilganligi, o'z nutqini refleksiv his qilish va axborotni uzatishda talaffuzni nazorat

qilishni qulaylashtiruvchi mexanizmlarning ilmiy-amaliy asoslanganligi va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki, yozma nutq yetakchiligida va daktil va imo-ishorali nutq zaruratida o'z fikrini bayon qilishga o'rgatuvchi ritmik mashqlarda tovushlarning hosil bo'lish o'rni, usuli va ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra harakatlarning mujassamlashtirilgani, bu jarayonni tizimli tashkil etish bo'yicha mashg'ulot ishlanmalari, kinetik-kinestetik topshiriqlarning tizimlashtirilgani, ota-onalarga nafas, ovoz va talaffuz mashqlarini mustaqil nutq uchun muhimligini yorituvchi tavsiyalarning ishlab chiqilgani va joriy qilingani bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishga oid tadqiqotlar asosida:

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari nutqni vizual-fonetik qabul qilish va ifodalash imkoniyatlarini hisobga olish hamda korreksion ta'sir usullarini ta'limiy maqsadlarga mos statistik o'rganishga oid takliflari "Surdopedagogika" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabr, 438-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan 438376-sonli guvohnoma). Natijada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirish jarayoni ritmik mashqlarning sinflar kesimida adaptivlashtirilishida tizimlilik va individual yondashuvlarga moslashtirish hamda kinetika va kinestetika uyg'unligining ritmik intervalda bo'lishini maqsadli ta'minlashga oid takliflari "Fonetik ritmika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-martdagi 68-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan 52-sonli guvohnoma). Natijada alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning metodik ta'minotiga erishilgan;

fonetik ritmika vositasida o'quvchilar nutqini rivojlantirish texnologiyasi faol nutqqa motivatsiyalovchi ritmik mashqlarni ovoz, nafas, diksiya ustida ishlash komponentlariga ko'ra darajalash hamda pedagogik ta'sir vositalarining texnologik xaritasini shakllantirishga doir tavsiyalardan "Ma'naviyat va ma'rifat" teleradiokanalidagi "Tong nafasi" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanali davlat muassasasining 2023-yil, 23-sentyabrdagi 212-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, alohida ehtiyojli bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish metodlarining keng targ'ib qilinishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta, respublika jurnallarida 4 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlanib, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Alohida ehtiyojli bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasining hal etilishida eng muhim mezonlar sifatida o'z-o'ziga xizmat va muloqot ko'nikmalarining shakllanganligiga ustuvorlik beriladi. Boladagi nuqson qaysi toifada ekanligidan qat'iy nazar uni muloqotga o'rgatish va o'zini namoyon etishga tayyorlash markaziy muammo hisoblanadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy rivojlanishiga, birinchi navbatda esa nutqning shakllanishiga to'sqinlik qilar ekan, bunday bolalarda maxsus korreksion yondashuvsiz nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy ko'nikmalar ham rivojlanmaydi.

K.N. Bolsunov va A.Y. Gapanenoklar ta'kidlashicha, inson borliq haqidagi tasavvur va bilimlarni ko'rish, eshitish, kinestetik, hid bilish va harakat analizatorlari orqali qabul qiladi. Eshituv analizatori orqali esa, shu ma'lumotlarning 13-20 % qabul qilishini ta'kidlagan. Demak, olinayotgan ma'lumotning muayyan darajada tanqisligi, inson tomonidan borliqni to'laqonli anglashiga to'sqinlik qiladi. Sog'lom bolalarda muloqot quroli bo'lgan nutq boshqalar nutqini eshitib, unga taqliddan shakllanadi va rivojlanadi.

S.Zikov, A.Pfafenrod, N.Shmatkolarning fikricha karlik va zaif eshituvchilik oqibatida bolalar muloqotda imo-ishoradan foydalanishga odatlanib qoladilar va o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini boshqalarga taqlid qilgan holatda, qisman o'zlashtiradilar. Bunda bolalarning sensor va intellektual rivojlanishi so'zli nutqdan holi kechadi. Demak, kar va zaif eshituvchi bolalarni to'g'ri va tizimli rivojlantirish uchun ularga maxsus yondashish zarur. Bu maxsus yondashuv esa, ularning kompensator sezgilariga tayanib amalga oshiriladi. Bu esa, kinestetik va vizual ta'sirning ahamiyatini yuqori ekanini anglatadi. Kar va zaif eshituvchi

bolalarda birlamchi nuqson karlik bo'lsa, uning oqibatida kelib chiquvchi ikkilamchi kamchiliklar ularning psixologik muammolarida kuzatiladi. Demak, eshitishning pastligi yoki yo'qligi oqibatidanutqiy rivojlanish ortda qoladi. Nutqiy rivojlanishning me'yorda emasligi esa, bubolalar uchun maxsus tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi muhit zarurligini maydonga chiqaradi. Kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariningnutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning didaktikimkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida ritmika mashg'ulotlarining harakat, kinestetik ta'sir, ritmik komponentlari ajratib olindi. Mazkur komponentlar doirasida o'quvchilarning nutqiy reabilitatsiyasini hayotiy nutqiy vaziyatlarda integrallashuviga erishishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-metodik ishlar natijasida ham umumiy motorika, ham nutqiy muloqot, ham ijtimoiy ko'nikma va malakalar shakllanishiga erishiladi. O'z-o'zini namoyon etishda fikrini bayon etish va o'zaro muloqotni ushlab turish va davom ettirish kabilar muhimdir. Bu jarayonda esa, albatta nutqiy nafas, ovoz, artikulyatsiya sohasida me'yorlar taqozo etiladi. Bu me'yorlarni bola tushunib yetsa, u o'z nutqini boshqarish kerakligini anglaydi. O'z nutqini boshqarish uchun mustaqil nutq ko'nikmalari talab etiladi. Mustaqil nutq ko'nikmalari o'zining nutq apparatini his qilish va ularning faoliyatini boshqarish negizida shakllanadi. Buning uchun bolalarga tana a'zolarining uyg'un faoliyatini talab etuvchi maxsus ritmik harakatlar o'rgatiladi.

Jan Jak Dalkroz, Melany del Carmen León Méndezlarining ta'kidlashicha tana qanchalik harakatchan bo'lsa, atrof-muhitning u bilan aloqasini va unga bo'lgan javob reaksiyani yaxshipoq his etadi. Bu jarayon ritmika mashg'ulotlarida amalga oshadi. Nicolas Cason va Denis Schön, shuningdek, Jana Iverson va Esther Thelen kabi olimlar kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirishda ritmika va harakatning muhimligini o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ritmik mashqlar markaziy asab tizimining nutq zonalarini faollashtirib, talaffuz, intonatsiya va nutqning boshqa elementlarini yaxshilashga yordam beradi. Musiqiy ritmga asoslangan mashqlar (ritmik priming) nutqning aniqligini oshiradi, harakatlar esa nutqni shakllantirish jarayonida gest va motorik qobiliyatlarni uyg'unlashtirish orqali samaradorlikni oshiradi. Ritmika mashg'ulotlarining muhim metodik aspektlari sifatida quyidagilar aniqlandi: kar va zaif eshituvchi bolalarning eshitish qoldig'idan optimal darajada foydalanishga qaratiladi, eshitishning yo'qligi yoki pastligi sababli korreksiya ishlarida ko'rish analizatori faoliyatiga tayaniladi, eshitish idroki, so'z-mantiq tafakkuri, ko'rgazmali tafakkurni rivojlantirishga ustuvorlik berish orqali xotira va diqqatni nutqqa mobilizatsiya qilishga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bolalarning mustaqil nutqini rivojlantirishda o'z tanasini his qilish, nutqini boshqarish, talaffuzini refleksiv nazorat qilish bo'yicha metodik tizimni takomillashtirish talab etiladi.

Y.N.Petkevich, K.V.Nikolayeva va L.A.Stupaklar fonetik ritmika o'quvchilarni o'z nutqiy apparati faoliyatini his qilgan holda ishga solishga o'rgatishini ta'kidlaydilar. Bu bo'yicha egallangan tajribalar o'quvchilarning

pedagog nazoratisiz va ko‘magisiz o‘z nutqini (his qilgan holda: havo oqimi, til va lab harakatlari, yuz va luj harakatlari, bosh, bo‘yin, qo‘l, tana korpusi harakatlari) akustik, fonetik, morfologik, sintaktik jihatdan jozibadorligini ifoda etishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda mustaqil nutqqa quyidagicha ta’rif keltiramiz: “Kar va zaif eshituvchi bolalarning mustaqil nutqi shunday ijtimoiy-psixologik hodisaki, bunda bola o‘z nutqining talaffuz tomonini kinetik-kinestetik tarzda boshqaradi va nutq organlari faoliyatini o‘zlashtirgan tajribasi asosida namoyon etadi, axborotning tushunarligini ta’minlovchi harakatlarni qo‘llaydi”. S.A.Kuzminova erta bolalik davrida eshitish funksiyasining buzilishi kar bola uchun mustaqil nutqni egallashdek imkoniyatni erishib bo‘lmas narsaga aylantiradi, chunki eshitish murojaatni idrok etishda va o‘z talaffuzini nazorat qilishda katta rol o‘ynaydi.

U.Y. Fayziyeva, Z. Mamarajabova, D. Yakubjanova, F. Qodirova, X. Raxmanovalar tomonidan eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida musiqa va ritmika korreksion mashg‘ulotlari tahlil etilgan. Ular kar va zaif eshituvchi bolalar nutqni harakat ko‘nikmalariga tayanilgan ko‘ruv analizatorlari orqali qabul qilishini ta’kidlaganlar. Bu toifa bolalari nutqning ohangini ilg‘ay olmaydilar. Bu bilan eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqiy prosodika (ovoz, nafas, artikulyatsiya)ni me’yorga yaqinlashtirish uchun maxsus metodik tizim zarur degan xulosamizni asoslash mumkin.

Nutqni rivojlantirishda eshitish, his qilish kabi jarayonlarni faollashtirishni ta’minlaydigan fonetik-ritmik harakatlarni talaffuz parallelida olib borish muhim deb hisobladik. Chunki fonetik ritmika talaffuzga erishishga kinetik-kinestetik darajada, ritmik tartibda kompleks ravishda ta’sir qiladi. G.A.Volkova logopedik ritmikaning nazariy asoslarini jamlagan bo‘lib, logopedik ritmikani turli xil nuqsonlari bo‘lgan insonlarning nutqini rivojlantirishda, umumiy tana harakatlarini aktivlashtirishda qo‘llash mumkinligini asoslab bergan. Olingan barcha ilmiy ma’lumotlardan kelib chiqqan holda fonetik ritmikaga quyidagi mualliflik ta’rifi berildi.

Fonetik ritmika-bu harakatli mashqlar majmui bo‘lib, audial, vizual, kinestetik ta’sir etish orqali, alohida ehtiyojli bolalar nutqining tovushlar talaffuzi hamda prosodik tomonini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan korreksion texnologiyadir.


Kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini samarali muloqot darajasida shakllantirish va rivojlantirishda fonetik ritmika kompleks imkoniyatlarga ega metodik yondashuvdir. Shuning uchun fonetik ritmika mashg‘uloti mazmunini optimallashtirish va innovatsion-rivojlantiruvchi muhitda tashkil etilishini ta’minlash bo‘yicha ta’limiy tajribalar olib borildi.

Dissertatsiyaning **“Alohida ehtiyojli bolalar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning korreksion-metodik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish modelini

joriy etish bo'yicha tajribalar bayon etilgan. Bunda kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasini didaktik qo'llab-quvvatlash mazmuni individual yondashuvlar asosida optimallashtirilgan. O'quvchilar nutqini rivojlantiruvchi vizual-fonetika, akustik-fonetika topshiriqlari fiziologik yo'naltirilgan individual muhitda kinetika va kinestetika uyg'unligida hamda ritmik intervalda qo'llanildi. Fonetik ritmikaning bir qancha mashqlari taqlid va oddiydan-murakkabga yo'nalganlik, shaxsiy rivojlanish va refleksivlik tamoyillari asosida tizimlashtirildi.

Qo'llanilgan vizual-kinestetik topshiriqlar namunaga qarab, eshitgani, ko'rgani va his qilganiga javob reaksiyasini berishga yo'naltirildi. Fonetik-ritmik jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lgan, ammo avval oson va elementar holatlardan boshlanib, so'ngra bolaning individual o'zlashtirish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkablashib bordi. Har bir ritmik harakatda tovushlar talaffuziga oid mashqlarga ustuvorlik berildi. Bunda o'quvchilarning o'z nutqini his qilishi, nazorat qilishi va ifodalashiga qarab, mashqlarning intervali o'zgartirib borildi. Chunki o'quvchilarning xotirasi va diqqati hamda nutqiy tajribalari turlicha bo'lib, pedagogdan differensial yondashishni talab etdi.

Model asosida tizimli harakatlar har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatiga mos ravishda transformatsiyalanib bordi. Shuning uchun korreksion-rivojlantiruvchi metodik tizimda adaptivlikka urg'u berildi. Natijada fonetik ritmika tovushli parallelda harakatlar in'ikosini ta'minladi. Fonetik ritmika vositasida o'quvchilar nutqini rivojlantirishning prosodika, tovush qo'yish, differentsiatsiya va mustaqil nutq kabi logopedik ish bosqichlari uchun tanlangan texnologiyalar o'quvchilarning lug'at boyligidan faol nutqiy jarayonda foydalanishni qulaylashtiruvchi ritmik mashqlardan tashkil topdi. Bunda ovoz, nafas, diksiya ustida ishlashning metodik bosqichlarida nutqiy kombinatsiyada integrativ qo'llashga erishildi. Mazkur tadqiqotda o'zbek tili klassifikatsiyasiga asoslangan holda hamda "Alifbo" darsligida keltirilgan tovush-harflar ketma-ketligiga asoslangan fonetik-ritmik harakatlardan musiqiy ritmika, korreksion mashg'ulotlarda hamda darslarning tashkiliy qismida yoki o'quvchilarning charchoqlari sezilgan paytda qo'llashga tavsiya etildi. Taklif etilgan modelning funksional blokida ritmik mashqlarning sinflar kesimida adaptivlashtirilishida tizimlilik va individual yondashuvlarga tayanildi. Harakatlar (nafas, ovoz, artikulyator va umumiy motorika harakatlari) ning tizimli va sinxron tarzda amalga oshirilishi bolalarda o'z nutqini his qilish va fikrini tushunarli bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Fonetik ritmikadan foydalanishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shunga qarab, korreksion ishning muddati va mazmuni belgilanadi. Eshitish buzilishining fiziologik simptomatikasi bo'yicha ritmik harakatlar ketma-ketligi tanlandi. Fonetik ritmika vositasida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini rivojlantirishning didaktik jihatdan ta'minlashda korreksion fan o'qituvchilari faoliyati bilan bog'liq yondashuvlarga tayanildi. O'zbek tili tovushlari tasnifiga ko'ra nutqiy monitoring yuritish talablari asosida o'quvchilarning fonetik kundaligi tarkibi boyitildi. Eshitish apparati qo'-



1-rasm: Kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini fonetik ritmika vositasida rivojlantirishning korreksion-metodik modeli

yilgan va apparatsiz bolalarni eshitishga o'rgatish ishlari ham o'ziga xos metodik tizim asosida olib borildi. Bunda bolalarga o'zining tanasini his qilish, havo orqali yoki suyak orqali vibratsiyani idrok etishga tayyorlash bo'yicha metodlar qo'llanildi. Bunda tayyorlov sinflar uchun "Quvnoq sharcha" nomli nafas mashqi, "O'rmonda aks-sado" nomli ovoz va nafasni uyg'unlashtiruvchi mashq, "Kloun" nomli artikulyator, mayda va umu miy motorikani kompleks rivojlantiruvchi o'yin va "To'tiqush" nomli nutqqa taqlid qilish istagini uyg'otuvchi va talaffuz, nutq rivojlanishiga olib keluvchi optimallashtirilgan harakatli mashqlar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida bolalarning vizual-fonetik hamda akustik-fonetik imkoniyatlarini stimullash oqibatida nutqni chaqiruvchi ta'sir amalga oshirildi. 1-sinflar uchun "Nasos" nomli quyi diafragmali nafasni postanovka qiluvchi nafas mashqi, "Ilon izidan" nomli ovozni modulyatsiya qilishga va ham ovoz hosil qiluvchi mashqlari, "Dance game" nomli umumiy va mayda hamda artikulyator motorikani rivojlantiruvchi o'yin, "Replay" nomli talaffuz va nutqni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar qo'llanildi. Ushbu metodlar tarkibida ritmik harakatlarga asoslangan ish turlari talab etildi. Bunda kinestetika uyg'unligining ritmik intervalda bo'lishini ta'minlashga erishdik. Bu ish turlari bolalarning tizimli harakatlariga asoslandi. Ya'ni kar bola o'zining nutqini eshitmasa-da, tovushlarning hosil bo'lish o'rni va usulini hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra nutq apparati faoliyatini refleksiv anglagan holda nazoratga o'rgatishga erishildi. Buning uchun ham o'ziga xos kinetik-kinestetik metodik tizim ishga tushirilishini taqozo etdi. Natijada quyidagilarga erishildi: birinchidan, harakatlarga asoslangan faoliyat negizini o'yinli muhit tashkil etgani sababli, kar va zaif eshituvchi bolalar bu jarayonga qiziqadilar. Ikkinchidan, o'z tanasini tizimli harakatlar asosida his qilgan bola, albatta nutq apparati faoliyatini ham kuzata oladi. Bu kuzatish sekin-asta va tizimli olib borilishi evaziga nutqiy-eshituv xotirasiga ta'sir etuvchi idrokka aylanadi. Aynan idrok etilgan talaffuz tajribalarini muloqot ko'nikmalari darajasida foydalanishga o'rgatish biz taklif etgan metodikaning asosini tashkil etdi. Natijada: bolalarda o'zining umumiy motorikasini va nutqiy apparatini sinxron tarzda boshqarish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllandi; tizimli sinxron faoliyat bolalarda mustaqil nutqni shakllantirdi; mustaqil nutqqa ega bolalar esa, o'z fikrini tushunarli darajada atrofda qilargalarga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Nutqiy jarayonida kinestetika uyg'unligining ritmik intervalda birlashtirdilar.

Eshitish idrokini rivojlantirishning turli usullari va vositalari amaliyotda qo'llanildi. Bu bo'yicha korreksion ish 3 bosqichda olib borildi:

1. Eshitishga. Nutqiy material yalang'och quloqqa idrok etish uchun berildi.
2. Eshitish+ko'rishga. Bunda nutqiy materiallar labdan o'qish va eshitishga parallel berildi.
3. Ko'rishga. Bunda nutqiy materialni idrok etish uchun rasmlar, so'zlar, predmetlarning natural holatlari orqali taqdim etildi. Bunda pedagog yoki murojaatchining yuz harakati aynan kartochka va boshqalarga yo'nalganligi bilan bog'liq harakatlar talab etiladi. Bunda nutqiy murojaatlarni tushunish va anglash bo'yicha yondashuvlarga ustuvorlik berildi. Ya'ni nutqning og'zaki, yozma, daktil, imo-ishora shakllaridan foydalangan holda o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlari

rivojlantirildi. Natijada o'quvchilarning nutqiy murojaatni "qabul qilish" holatidan, murojaatni "uzatish" holatiga o'tishi barqarorlashdi. Qo'llanadigan metodik tizimda o'quvchilarning eshituv, ko'ruv-eshituvini rivojlantirishda sensonevral sohaga ta'sir etish usullari sinflar kesimdatizimlashtirildi. Dars va mashg'ulotlar davomida fonetik-ritmik topshiriqlar differensiallashgan holatda har bir bola uchun moslashtirildi. Aynan shuning uchun pedagoglardan eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning klinik, psixologik, pedagogik xususiyatlarini bilishiga e'tibor qaratildi.

Dissertatsiyaning "**Alohida ehtiyojli bolalar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning samaradorligi**" deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish, o'tkazish tartibi va uning tahliliy natijalari keltirilgan. Ishlab chiqilgan metodik model samaradorligi tavsiflangan va samaradorligi aniqlangan. Fonetik ritmika texnologiyasi vositasida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan, 2021-2024-yillarda amalga oshirilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda amalga oshirildi. **Birinchi bosqich** ishlari amaliyotda ritmika mashg'ulotiga doir metodik ishlarning yo'lga qo'yilganligini tahlil qilishga qaratildi. Bunda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida musiqiy ritmika mashg'ulotining olib borilishi, shu fanning o'quv rejadagi o'rni va dasturi tahlil etildi. Ushbu bosqichda kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishga oid nazariy ma'lumotlar tahlil etildi.

